

**AXBOROT TEXNALOGIYALARI DAVRIDA FALSAFIY TAFFAKUR RIVOJI:
(FAYLASUF J.YAXSHILIKOV HAYOTI VA ILMIY MEROSI MISOLIDA)**

Xotamova Mohinur Shermuhammad qizi.

Samarqand davlat pedagogika instituti, magistiranti

Tel: +998990837696

mohinurxotamova1997@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalari davrida falsafiy tafakkurning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari professor Jo 'raboy Yaxshilikov Yaxshilikovichning hayoti va ilmiy merosi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda olimning axborot va ong, texnologiya va inson, ma'naviyat va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi munosabatlarga oid falsafiy qarashlar yoritilgan. Shuningdek Yaxshilikovning ilmiy faoliyatida insonparvarlik, ma'naviy kamolot va raqamli jamiyatda shaxsning o'rni kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Maqola axborot asrida falsafiy merosni zamonaviy g'oyalar bilan uyg'unlashtirish zarurligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: falsafiy tafakkur, evolyutsiya, axborot texnologiyalari, raqamli jamiyat, Jo 'raboy Yaxshilikov Yaxshilikovich, Yaxshilikov hayoti, ilmiy meros, ma'naviyat, insonparvarlik, axloqiy qadriyatlar, zamonaviy falsafa, kitoblar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы формирования и развития философского мышления и эпоху информационных технологий на примере жизни и научного наследия профессора Джурабой Яхшиликова Яхшиликович. В исследовании освещаются философские взгляды учёного на взаимосвязь информации и сознания, технологий и человека, духовности и нравственных ценностей. Особое внимание уделяется гуманистическим идеям, вопросам духовного совершенствования личности и роли человека в цифровом обществе. В статье обосновывается необходимость обновления философского мышления и информационный век, его опры на гуманистические принципы и важность гармоничного сочетания национального философского наследия с современными идеями.

Ключевы слова: философское мышление, эволюция, информационные технологии и цифровое общество, Джурабой Яхшиликов Яхшиликович, жизни Яхшиликов, научное наследие, дучовность, гуманизм, нравственные ценности, современная философия, книги.

Annotation: This article analyzes the formation and development stages of philosophical thinking in the are of information technologies through the life and scholarly legacy of Pofessor Joraboy Yakhshilikov Yakhshilikovich. The study highlights the scholl's

philosophical views on the interrelation between information and consciousness, technology and humanity, spirituality and moral values. Special attention is given to Yekhshilikov's humanistic ideas, his emphasis on spiritual perfection, and the role of the individual in the digital society. The article substantiates the necessity of renewing philosophical thought in the information age, grounding it in humanistic principles, and harmonizing national philosophical heritage with modern ideas.

Keywords: *philosophical thinking, evolution, information technologies, digital society, Joraboy Yakhshilikov Yakhshilikovich, Yakhshilikov's life, scientific legacy, spirituality, humanism, moral values, modern philosophy.*

Kirish: XXI asr boshlaridan boshlab insoniyat axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadigan yangi bosqichga qadam qo'ydi. Raqamli inqilob, suniy intellekt, global tarmoqlar va virtual muhitning shakllanishi inson tafakkuri, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalari nafaqat inson faoliyatining barcha sohalarini o'zgartiribgina qolmay balki falsafiy fikrlash uslubi, bilish jarayoni va ma'naviy qadriyatlar tizimining qayta ko'rib chiqilishiga ham sabab bo'ldi. O'zbek falsafasining yirik vakillaridan biri-professor Jo'raboy Yaxshilikov Yaxshilikovichning hayoti, bosib o'tgan yillari, ilmiy merosi, alohida e'tiborga loyiqdir. U o'z ilmiy izlanishlarida inson va jamiyat, texnologiya va axloq, axborot va ong o'rtasidagi murakkab falsafiy bog'liqliklarni chuqur tahlil qilgan. Professor Yaxshilikovning asarlarida zamonaviy texnologik taraqqiyot sharoitida insonning ma'naviy kamoloti, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish masalalari markaziy o'rin egallaydi. Uning ilmiy faoliyati falsafiy tafakkurni insonparvarlik, ma'naviyat va axloqiy ma'suliyat tamoyillari asosida rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Yaxshilikov "O'z oldiga mustaqil mamlakatimiz uchun xizmat qilishni maqsad qilib qo'ygan har bir shaxs O'zbekiston xalqi milliy mafkurasining bosh va asosiy g'oyalarning mohiyati-mazmunini, milliy va umuminsoniy tamoyillarini yaxshi o'zlashtirib olishi shart" [1] kabi tamoyillar asosida tinimsiz izlanishlar va zamonaviy texnologiyalarga moslab yangiliklar yaratib kedi. Bugungi globallashuv va raqamli o'zgarishlar sharoitida falsafaning vazifasi yanada murakkablashib kelmoqda. Endilikda falsafiy tafakkur insonni texnologiyalar hukmronligida o'zligini yo'qotmaslikka, aqliy va ruhiy muvozanatni saqlashga, axborot oqimida haqiqatni anglashga yo'naltiruvchi kuch bo'lishi lozim. Shu jihatdan Yaxshilikovichning ilmiy qarashlari bugungi axborot davrining falsafiy muammolarini anglashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Yaxshilikov Jo'raboy Yaxshilikovich 1953-yil 25-fevralda Samarqand viloyati, Bulung'ur tumani, Oqtom Beshbola qishlog'ida tug'ilgan.

Professorning yoshligi ushbu qishloqda o'tgan. J.Yaxshilikov maktabni a'lo baholar bilan tamomlab ToshDU (hozirgi O'zMU)ning falsafa bo'limiga o'qishga kirgan mazkur oliygohning falsafa bo'limini 1975-yilda a'lo darajada tamomlagan. Yosh ijodkor oliygohni tamomlagandan so'ng o'zining mustaqil faoliyatini boshlaydi. 1975-2006-yillar oralig'ida Samarqand davlat universitetida o'qituvchi, dotsent, dekan, prorektor lavozimlarida ishlagan. 1992-yildan shu kungacha qadar "Milliy g'oya falsafa" kafedra muduri bo'lib ishlab kelmoqda. J.Yaxshilikov "Ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi" jurnali asoschilaridan biri bo'lib jurnalning 1-soni 1998-yilda ommaga taqdim qilinadi. Professorning bir qancha asarlari va darsliklar kitoblari bo'lib ulardan, "Sotsial-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotni jadallashtirish dialektikasi" kitobi 1989-yilda Maskvada 5000 ming nusxada chop etilgan. "Temuriylar ma'naviyati" (1999), "Ulug'bekning tabiiy ilmiy merosi" (1997), "Jadidchilik va Behbudiy" (2004), "Milliy g'oya va mafkura", (2015), "Milliy g'oya-taraqqiyot strategiyasi" (2017) kabi monografiyalari, "Milliy g'oya: "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" nomli darsligi 2018-yilda Toshkentda Cholpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uy tomonidan chop etilgan, "Texnika va informatsion texnologiyalar falsafasi" (2020), "Falsafa" (2025) nomli darsliklari, shuningdek 400 dan ortiq ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar muallifi hisoblanadi. Ilmiy faoliyati davomida 6ta fan doktori va 40dan ortiq fan nomzodini tayyorlab o'ziga xos ilmiy maktab yaratgan. "O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi" "I darajali mehnat faxriysi ko'krak nishoni" bilan taqdirlangan. Yaxshilikov o'z ilmiy maktabida yosh tadqiqotchilarga tafakkurni dinamik, tizimli va gumanistik nuqtai nazardan o'rganishni targ'ib etgan. Uning ilmiy merosi axborot asrida falsafaning ijtimoiy vazifasini yangicha anglashga, milliy tafakkur rivojlanishini global tendensiyalar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda.

"Texnika va informatsion texnologiyalar falsafasi" nomli darsligida axborot texnologiyalari va falsafaning bir biriga uzviy bog'liq ekanligini anglashimiz mumkin. Professor bu darslik orqali falsafa va axborot inson xayotida keng joy olganligini hamda insonyatning rivojlanishida ikki unsuming o'rni haqida keng ma'lumot berib o'tgan.

Respublikamizda axborot texnologiyalarini va inson tafakkurini, falsafasini rivojlantirish borasida bir qancha qarorlar qabul qilingan. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Inovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» [1] 2018-yil 27-aprelda PQ 3682-sonli Qarori qabul qilingan bo'lib unda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlariga ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalarini va nou-xau ishlanmalarini keng joriy etish, ushbu yo'nalishda ilmiy muassasalar va real iqtisodiyot tarmoqlari korxonalar o'rtasida yaqin hamkorlikni o'rnatish asosida mamlakatni inovatsion tarzda jadal rivojlantirishni amalga oshirish vazifalari belgilab berilgan. [2]

Muhokama. Global makonda texnika, axborot texnologiyalari (AT), raqamli texnologiyalar (RT), suniy intellekt (SI) va virtual reallik (VR) ning mutanosibligi hayotimizning turli sohalariga katta ta'sir ko'rsatadi va bu texnologiyalar orasidagi integratsiya butun dunyodagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarni yuqori sur'atda rivojlantirayotganini ko'rsatadi. Ushbu texnologiyalar bir-birini mukammal tarzda qo'llab-quvvatlab, yangi imkoniyatlar yaratadi.[3] Bunday darsliklarida bu kabi murakkab texnologiyalar bilan fasafaning bir biriga bog'liqligini tushuntirib o'tgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan qanday maqsadlarda foydalanishlariga qarab jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlarning falsafiy mantig'i tashkil qiladi. Masalan, davlatlararo axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida "elektron hukumat" doirasidagi olib boriladigan shartnomalar va ularning bajarilishi bunga misol bo'la oladi. AKT ni rivojlantirish va uning natijalaridan mamlakat hayotining barcha sohalarida unumli foydalanish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyun kuni "Respublika axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni e'lon qilindi. Bundan ko'zlangan maqsad mamlakatimizda AKT uchun xalqaro standartlarga muvofiq dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahaliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan sifatli va raqobatdosh dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirishni tashkil etishdan iborat.[10] Yaratilayotgan har bir texnologiya o'z navbatida insonyat uchun zararsiz xizmat qiladigan ong va tafakkuriga zarar yetkazmaydigan texnologiyalar bo'lishi zarur. Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va internet orqali amalga oshirilayotgan mafkuraviy (ideologik) hurujlar kopaymoqda. bu kabi muammoli vaziyatlarda inson ongi passiv bir holatda bo'lmasligi va o'zini o'zi boshqara olishi uchun taffakur olamini kengaytirishi kerak. Professor darsliklari aynan shunday vaziyatlarda yoshlarni zamonga tarbiyalash va zamonaviy texnologiyalardan to'g'ri foydalanishga qaratilgandir.

Shu jihatdan, falsafa fanlari doktori, professor Jo'raboy Yaxshilikov Yaxshilikovichning ilmiy merosini o'rganish orqali biz O'zbekiston falsafa maktabining yetuk vakillaridan biri bo'lib, uning ilmiy izlanishlari axborot jamiyatida inson tafakkuri, ma'naviy qadriyatlar va inovatsion tafakkur muammolarini chuqur tahlil etishga bag'ishlangan. U o'z asarlarida tafakkur evolyutsiyasini ijtimoiy ongning tarixiy shakillari bilan uzviy bog'liq holda ko'radi. Yaxshilikovning fikricha inson tafakkurining rivoji faqat texnik yoki ilmiy taraqqiyot bilan emas, balki ma'naviy axloqiy va madaniy omillar bilan ham belgilanadi.

Xulosa: Axborot texnologiyalari davrida inson tafakkuri evolyutsiyasi murakkab va ko'p qirrali jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon faqat texnika yutuqlar yoki raqamli tizimlarning rivoji bilan emas, balki insonning ichki dunyosi, ma'naviy qiyofasi,

axloqiy qarashlari va falsafiy dunyoqarashidagi o‘zgarishlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Axborot texnologiyalarining tezkor rivoji inson tafakkuriga yangi imkoniyatlar ochgan bo‘lsada, shu bilan birga tafakkurning soddalashuvi, yuzaki tafakkur, tanqidiy fikrlashning susayishi kabi muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda. Shu boisdan, zamonaviy falsafaning eng muhim vazifalaridan biri texnologik taraqqiyot sharoitida inson tafakkurining gumanistik, ijodiy va axloqiy asoslarini saqlab qolishdir. Professor ana shu muhim masalalarning falsafiy ildizlarini chuqur o‘rganib, ularni milliy va global kontekstda tahlil qilgan olimdir. Uning ilmiy merosi zamonaviy falsafa uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Yaxshilikov inson tafakkurini doimo dinamik, o‘zgaruvchan va ijtimoiy tajriba bilan bog‘liq jarayon sifatida ko‘radi. Unga ko‘ra, axborot texnologiyalari inson tafakkurini boyitishi, bilish jarayonini tezlashtirish mumkin, biroq bu jarayon faqat ma‘naviy-axloqiy mezonlar bilan uyg‘unlashgan taqdirdagina inson kamolotiga xizmat qiladi. Olimning “axborotlashgan tafakkur”, “inovatsion tafakkur”, “madaniy tafakkur” tushunchalariga bergan falsafiy izohlari zamonaviy tafakkur madaniyatini shakllantirishda muhim nazariy asos bo‘lib qolmoqda. U inson va texnologiya o‘rtasidagi munosabatni faqat utilitar yoki texnik jarayon emas, balki axloqiy, estetik va gumanistik muvozanat sifatida talqin etadi. Bu yondashuv, o‘z navbatida, axborot asrida insonning o‘zligini anglash, ma‘naviy qadriyatlarni saqlash va ijtimoiy ongini yangicha ruhda shakllantirishga turtki beradi. Olimning ilmiy merosi O‘zbekiston falsafiy tafakkurining milliy o‘ziga xosligini saqlagan holda, uni global ilmiy-falsafiy oqimlar bilan bog‘lashga xizmat qilmoqda. Bu ilmiy meroslar yo‘l ko‘rsatuvchi intellektual manba bo‘lib u zamonaviy insonni texnologik taraqqiyot girdobida ham o‘z “men”ini, o‘z qadriyatlarini va insoniy mohiyatini yo‘qotmaslikka da‘vat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. [“Milliy g‘oya va mafkura” O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Samarqand davlat un-ti.- Toshkent: Fan, 2015. 272 b.]
2. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. [“Texnika va informatsion texnologiyalar falsafasi” Darslik: Bakalavriat yo‘nalishida «Falsafa» va «Texnika» mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar uchun. Samarqand-2019.]
3. Yaxshilikov J.Ya. [“Falsafa” Darslik: Barcha balalavriat yo‘nalishlari uchun. Samarqand-2025.]
4. Yaxshilikov J.Ya. [“Sotsial-iqtisodiy va ma‘naviy taraqqiyotni jadallashtirish dialektikasi” 1989-yil]
5. Yaxshilikov J.Ya. [“Temuriylar ma‘naviyati” (1999)]

6. Yaxshilikov J.Ya. [“Ulug‘bekning tabiiy ilmiy merosi” (1997)]
7. Yaxshilikov J.Ya. [“Jadidchilik va Behbudiy” (2004)]
8. Yaxshilikov J.Ya. [“Milliy g‘oya-taraqqiyot strategiyasi” (2017)]
9. Yaxshilikov J.Ya. [“Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”]
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyun kuni “Respublika axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Inovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida » 2018-yil 27-aprelda PQ 3682-sonli Qarori.